

O'ZBEKISTONDA IQTISODIYOTIDA BANKLARNING O'RNI**Abduxomidov Ikromjon Maxamadin o'g'li***O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi Moliya va moliyaviy texnologiyalar fakulteti uslubchisi.*

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada O'zbekiston iqtisodiyotida banklarning o'rni va ahamiyati haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Globallashuv, bank, iqtisodiyot, moliya, xizmat ko'rsatish, modernizatsiya, investitsiya.

Bugungi globallashuv davrida integratsiyalashish jarayonlarining tobora avj olib borayotgani, mamlakatlarning o'zaro iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalaridagi munosabatlarining kun sayin rivojlanib borishi, shunigdek, iqtisodiyotni rivojlanishining bir sababchisi sifatida bank tizimini e'tiborsiz qoldira olmaymiz. Bugungi kunda keng qamrovli iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bank xizmatlarini sifatli amalga oshirish, shu jumladan asosiy banklarning an'anaviy xizmat turi bo'lmish kredit operatsiyalarining na'munali darajada bo'lishi har bir mamlakat iqtisodiyotida katta va muhim ahamiyatga egadir.

Zamonaviy iqtisodiyotda bank tizimi moliyaviy infrastrukturaning asosiy elementi hisoblanadi. Bank tizimi iqtisodiyotning barcha sektorlari o'rtasidagi aloqalarni ta'minlovchi, moliyaviy resurslarni samarali taqsimlovchi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi muhim mexanizm sifatida faoliyat yuritadi. Jahon moliyaviy inqirozlari bank tizimining iqtisodiyotdagi rolini yanada dolzarb masalaga aylantirdi. Bank tizimining samarali faoliyati milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash, investitsion faollikni oshirish va aholining turmush darajasini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, bank tizimining iqtisodiyotdagi rolini kompleks o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi bank sohasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan davlat dasturlari doirasida bank tizimini raqamlashtirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Mamlakatimizda bank-moliya tizimi barqarorligi yo'lida qabul qilingan normativhuquqiy hujjat sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son Farmoniga to'xtaladigan bo'lsak, mazkur Farmonning 1-ilovasida 2020 - 2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasining III bob 3.3-bandiga asosan Zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish asnosida quyidagi ishlar belgilab berilgan: masofaviy bank xizmatlari, shu jumladan kontaktsiz to'lovlar soni va qamrovini kengaytirish; avtomatlashtirilgan skoring tizimi, raqamli identifikatsiyalash va kredit konveyeridan keng foydalanish; bank ma'lumotlari va tizimlarining axborot xavfsizligini kuchaytirish; bank sohasidagi yangi konsepsiya va texnologiyalarni joriy qilish (fintex, marketpleys, raqamli bank).

Shuningdek mamlakatimiz iqtisodiyoti globallashuv sharoitida bank-moliya tizimini isloh qilish va barqarorligini oshirish, bank tizimiga mamlakatimiz insonlarini va xorijlik hamkorlarimizni ishonchini yanada oshirish, bank mijozlariga axborotkommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llagan holda, banklar tomonidan taklif etilayotgan bank xizmatlarining turini kengaytirish bugungi kunning eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz Prezidentining 2018-yil 23-martda qabul qilingan "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi PQ-3620-son qaroriga asosan "Bank xizmatlari ommabopligining oshirilishini va bank xizmatlari iste'molchilari huquqlarining himoya qilinishini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining muhim va asosiy vazifalaridan biri ekanligi belgilab qo'yildi

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini yuqori va barqaror sur'atlarda o'sishini va raqobatbardoshligini ta'minlash mamlakat bank tizimining va uning muhim tarkibiy qismi bo'lgan tijorat banklari faoliyatining barqarorligini ta'minlash zaruriyatini yuzagakeltiradi. Tijorat banklarining yuridik shaxs sifatida faoliyati omonatchilar, kreditorlar, umuman, davlat va jamiyat manfaatlariga jiddiy daxldor bo'lganligi tufayli uning tashkil topishi uzoq davom etadigan jarayon hisoblanadi. Shu vaqt ichida bo'lg'usi ta'sislar o'rtasida o'zaro munosabatlar o'rnatiladi, bank ustav kapitali uchun zarur bo'lgan mablag'lar tayyorlanadi, rahbar shaxslar zarur hujjatlar tayyorlaydi, tegishli tekshiruvdan o'tkaziladi va hokazolar.

Bizga ma'lumki, moliya bozorida operatsiyalar moliya muassasalari vositasida amalga oshiriladi. Bunday muassasalarga turli xil banklar, birjalar, depozitariylar, sug'urta kompaniyalari, investitsiya fondlari, agentliklar va h.k.lar kiradi. «Bank» tushunchasi qadimiy fransuzcha bang va italyanча banc so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, sarrof kursisi, do'koni, pulli stol, stol-stul, dumaloq stol degan ma'nolarni (200 dan ortiq ma'nolari bor, chunki turli davlatlarda turlicha qarashlar va turlicha izohlar keltirilgan) anglatadi. Bunday tushuncha tarixchilarning taxminan 2000 yil muqaddam faoliyat ko'rsatgan bankirlar haqidagi ma'lumotlarida ham mavjud. Pul munosabatlarining rivojlanishi banklarni yuzaga keltirgan. Bank iqtisodiyot ishtirokchilarining pul yuzasidan bo'lgan aloqalariga xizmat qiluvchi institut (muassasa)dir. Pul bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatuvchi tashkilotlar ko'p, ammo ularning markazida banklar turadi. O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunida, bank nima, degan savolga quyidagicha javob topish mumkin:

Bank - tijorat tashkiloti bo'lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan faoliyat turlari majmuini amalga oshiradigan yuridik shaxsdir. Banklar pul olamini harakatga keltiruvchi motor - yurak, pul bilan bo'ladigan hisob-kitoblarni amalga oshiradi. Hamma pul to'lovlari (transfertlar) banklar orqali o'tadi. Bank ishi pul olamida bo'ladigan biznesdir. Bank biznesi foyda topish maqsadida yuritiladi. Markaziy bankning monopoliya mavqei uning mamlakatdagi pul va pirovard natijada iqtisodiy barqarorlik uchun alohida javobgar ekanligi bilan chambarchas

bog'liq. Tijorat banklari Markaziy bankda o'z qisqa muddatli va o'rta muddatli majburiyatlaridan muayyan foiz hajmida eng kam zahira deb yuritiladigan foizsiz omonatlarni saqlashga majbur.

Bank tizimi monetar siyosatni amalga oshirishning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Markaziy bank o'zining pul-kredit siyosatini tijorat banklari orqali amalga oshiradi. Majburiy zahira talablari, qayta moliyalash stavkasi va ochiq bozor operatsiyalari kabi monetar siyosat instrumentlari bank tizimi orqali iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatadi. Bu orqali narxlar barqarorligi va milliy valyuta kursi barqarorligi ta'minlanadi. Bank tizimi iqtisodiyotda risk boshqaruvi funksiyasini ham bajaradi. Banklar kredit, likvidlik va boshqa moliyaviy risklarni professional darajada baholash va boshqarish imkoniyatiga ega. Bu esa iqtisodiyotdagi moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, bank tizimi orqali xalqaro moliyaviy integratsiya jarayonlari amalga oshiriladi, chet el investitsiyalari jalb qilinadi va tashqi savdo operatsiyalari moliyalashtiriladi. Zamonaviy sharoitda bank tizimining roli yanada ortib bormoqda. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bank xizmatlarining yangi turlarini yaratish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish imkonini bermoqda.

Bank tizimi innovatsion rivojlanish orqali iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasiga ham sezilarli hissa qo'shmoqda. Masofaviy bank xizmatlari, sun'iy intellekt texnologiyalari, blokcheyn va boshqa innovatsiyalar bank tizimining samaradorligini oshirmoqda. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bank tizimining iqtisodiyotdagi roli nafaqat moliyaviy vositachilik va to'lov operatsiyalarini amalga oshirish bilan cheklanadi. Bank tizimi keng ko'lamli axborot bazasiga ega bo'lib, iqtisodiy jarayonlarni monitoring qilish va tahlil etish imkoniyatiga ega. Bu esa iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bank tizimi zamonaviy iqtisodiyotning muhim elementi sifatida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash kabi muhim funksiyalarni bajaradi. Bank tizimining samarali faoliyati milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun zarur shart hisoblanadi. Bank tizimining iqtisodiyotdagi rolini yanada oshirish uchun raqamli texnologiyalarni joriy etish, bank xizmatlarini diversifikatsiya qilish va bank nazorati tizimini takomillashtirish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yildagi 12-maydagi "2020 - 2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son Farmoni (13.05.2020 dan kuchga kirgan) <https://lex.uz/docs/4811025>. [11]

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-martdagi "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar